

IJOBIY MA'NOLI GAP STRUKTURALI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING NUTQDA QO'LLANILISHI

A.A Tursunov

SamDCHTI stajyor-o'qituvchisi.

Kalit so'zlar: gap strukturali frazeologik birliklar, semantika, modallik, ko'p vazifalilik.

Nemis tili uchun xos bo'lgan gap strukturali frazeologik birliklar faol so'zlashuv nutqida qo'llaniladi. Gaplashgan frazeologik birliklar ko'pincha turli semantik, modal-baholash va ekspressiv jihatlarni o'z ichiga oladi. Nemis tilida gaplashgan frazeologiyani guruhlanishi qo'yidagi turlarga bo'linadi: a) ijobiy ma'no va b) salbiy ma'nolarni o'z ichiga olgan ikkita katta semantik tagturlarga asoslanadi. Ushbu maqolada ijobiy ma'no kasb etuvchi gap frazeologik birliklar ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi.

Ijobiy ma'no kasb etuvchi gaplashgan frazeologik birliklar quyidagi semantik guruhlariga ajratiladi:

1. Hurmat-ehtram, zavq-shavqni ifodalovchi gaplashgan frazeologik birliklar: Hut ab! 'ta'zim qilaman!'.

2. Xayr-xushlashish: Meinen Empfehl! 'Salom!'; Bis bald! 'Tez orada ko'rishguncha!'; Auf Wiedersehen! 'Xayr!'; Auf Wiederhören! 'Xayr!'; Auf bald also! 'Ko'rishguncha!'; Gott befohlen! 'Xudoning panohiga, Yaxshi qoling!'; Bleib mir gewogen! 'Yaxshilik bilan eslang, Yomonlab tilga olmang!'; Bis gleich! 'Ko'rishguncha!'; Gute Nacht! 'Xayrli tun!'; Lebe wohl! 'Yaxshi qol!'; Mach's gut! 'Sog' bo'!'.

3. Mehmonlarni kutish va kuzatish vaqtida mezbon ishlatadigan gaplashgan frazeologik birliklar ham ushbu semantik guruhga kiradi: Grüß Gott! 'Ollohning salomi!'; Sie sind uns stets angenehm 'Sizni ko'rganimdan har doim xursandman!'; Kommen Sie gut heim! 'Yaxshi boring! Uyga yaxshi yetib keling!'. Mensch Meier! 'Kimni ko'ryapman!'; Guten Tag! 'Assalomu alaykum!'; Guten Abend! 'Assalomu alaykum, Xayrli kech!'; Guten Morgen! 'Assalomu alaykum, Xayrli tong!'. kabi turg'un frazeologik birliklar.

4. Turli yaxshi tilaklarni ifodalovchi gaplashgan frazeologik birliklar:

1) Oq yo'l tilashni ifodalovchi gaplashgan iboralar: Angenehme Reise! 'Oq yo'l!'; Glücklichen Rutsch! 'Safaringiz bexatar bo'lsin!'; Glück auf den Weg! 'Oq yo'l, Yaxshi boring!, Ishingiz xayrli bo'lsin!'; Gute Reise! 'Oq yo'l!'; Mit Glück! 'Yaxshi boring!';

2) Yoqimli dam olish tilagini bildiruvchi frazeologiyalashgan gaplar: Angenehme Ruhe! 'Yaxshi dam oling!'; Möge deine Reise glücklich verlaufen! 'Sayohating chiroyli o'tsin!';

3) Biror kishiga sog'lik, muvaffaqiyat, baxt, omad, ezgulik tilaklarini ifodalovchi gap frazeologik birliklar: Behüt dich Gott! 'Xudo asrasin!'; Laß es dir gut (wohl) bekommen! 'Bu sening foydangda bo'lgan!'; Gehab(e) dich wohl! 'Sog' bo'!'; Zur gesundheit! 'Salomat bo'ling!'; Er lebe hoch! Er soll leben! 'Uning sog'ligi uchun!'; Mögest du glücklich sein! 'Baxtli bo'!';

4) Biror kishiga, biror narsada omad tilash: Ich wünsche Ihnen ein gutes Fortkommen! ‘Sizga muvaffaqiyat tilayman!’; Guten Erfolg! ‘Muvaffaqiyat tilayman!’; Glück zu! ‘Omad sizga!’;

5) Bemor kishiga shifo topishni, sog‘ayib ketishini bildiruvchi tilaklar: (Ich wünsche Ihnen) gute (baldige) Besserung! ‘Tez sog‘ayib keting!’; Gute Besserung! ‘Sog‘ayib keting!’;

6) Yoqimli ishtaha tilagini bildiruvchi frazeologiyalashgan gaplar: Wohl bekomm’s! ‘Osh bo‘lsin!’; Ein gedeihliches Mittagessen allerseits! ‘Yoqimli ishtaha!’; Guten Appetit! ‘Yoqimli ishtaha!’; Gesegnete Mahlzeit! ‘Osh bo‘lsin, Yoqimli ishtaha!’; Prosit Mahlzeit! ‘Osh bo‘lsin, Yoqimli ishtaha!’. Bunda hazil-mutoyiba tusga ega bo‘lgan gaplashgan frazeologik birliklar ham uchraydi: Guten Hunger! ‘Yoqimli ishtaha!’. Ushbu turga qadah ko‘tarishda ishlatiladigan frazeologiyalashgan gaplar ham kiradi: Die wir meinen! ‘Barcha qadrdon insonlarning sog‘ligi uchun!’; Prosit allerseits! ‘Barchalarning sog‘ligi uchun!’;

7) Birovga dalda berish, biror kishiga ishlarida muvaffaqiyat tilash,: Mach nur so fort! ‘Shu alfozda davom ettir!’; Glück zu! ‘Omad tilayman!’;

8) Qutlash ko‘rinishidagi frazeologiyalashgan gaplar: Meinen herzlichsten Glückwunsch! ‘Chin yurakdan tabriklayman!’; Prosit Neujahr! ‘Yangi yilingiz bilan!’; Glücklichen Rutsch ins Neue Jahr! ‘Yangi yilingiz bilan!’.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan frazeologiyalashgan gaplarning ayrimlari uchun ma’lum semantik ko‘pvazifalik xos. U turli nutqiy vaziyatlarda namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, frazeologiyalashgan gaplar Guten Abend! Salomlashishda va xayrlashishda ‘Xayrli tun!’ ma’nosini beradi; Mein Beileid ‘1) Men sizga chuqur ta’ziyamni bildiraman!, 2) kinoyali: tabriklayman!’; Wie beliebt? ‘1) Xizmat? 2) Iltimos, qaytaring’.kabi ma’nolarda qo‘llaniladi.

Frazeologiyalashgan gaplarning ko‘pvazifaliligi ham semantik xarakterga ega bo‘lishi mumkin [Safarov Sh., 1989, 142-146]. Qiyoslang: gap strukturali frazeologik birlik kinoyali tus bilan yoki usiz amalga oshirilgan holatlar: Das ist (doch) einzig! ‘Qoyil! Ajoyib!’. Ancha murakkab ma’noga hamda ikkita alohida semantik tus sinteziga ega bo‘lgan gap strukturali frazeologik birliklar semantik ko‘pvazifalilik turlaridan dalolat beradi. Misol uchun, ushbu holat a) xayrlashish va b) yaxshi dam olish tilagi ma’nolarini bildirgan Geruhsame Nacht! ‘Xayrli tun!’ gap strukturali frazeologik birlikka xos. Shunga mos ravishda, bir xil so‘zlashuv vaziyatda bitta obrazni yetkazib berishda semantik-modal tus orqali farqlanuvchi bir-biriga sinonim gap strukturali frazeologik birliklari qo‘llanilishi mumkin. Qiyoslang: Glückliche Reise! va Glücklichen Rutsch! ‘Oq yo‘l!’sinonimlar juftidan ikkinchi gap strukturali frazeologik birligi hazil-mutoyiba tusga ega.

5. Biror narsa yoki biror kishi borasida zavqlanishni, xursandlikni ifodalovchi gap strukturali frazeologik birliklar: Alle Achtung! ‘Zo‘r! Juda soz!’, Gap yo‘q!’; Das ist Marke! ‘Juda ham yaxshi! Juda soz!’; Das ist ein wahres Meerwunder! ‘Bu haqiqiy mo‘jiza!’.

6. Biror kishiga murojaatni ifodalovchi gap strukturali frazeologik birliklar: Alter Schwede!, Alter Junge! ‘Og‘aynim! Birodar!’; Mein Bester! ‘Azizim!’; Meine Beste!

‘Azizam!’; Alter Bursche! ‘Do‘stim!’; Gnädige Frau!, Gnädiges Fraulein! ‘Xonim!, Muhtarama xonim!’; Gnädiger Herr! ‘Taqsir!, Muhtaram janob!’; Altes Haus! ‘Og‘aynim!, Do‘stim!’; Guter Mann! ‘Azizim!’; Mein Herr! ‘Taqsir!, Muhtaram janob!’; Meine Herren! ‘Janoblar!, Muhtaram janoblar!’; Meine Damen und Herren! ‘Xonimlar va janoblar!’; Mein Herzchen! ‘Jonim!’; Alter Knabe! ‘Hoy, otaxon!’; Liebe Leutchen! ‘Do‘stlarim! Azizlarim!’; Lieber Mann! ‘Qadrli do‘stim!’; Meine Maus! ‘Sevgilim!’; Mein Mäuschen! ‘Jonginam!’; Mein Schatz! ‘Bebahoginam!’, ‘Mening xazinam!’

7. Ma’lum shaxsni tavsiflovchi gap strukturali frazeologik birliklar [Chernisheva I. I, 1974, 155-160]: Das ist ein Kerl ‘Irodali odam, Bu haqiqiy yigit!’. Bunda marhamat, rahm semantikasini kuchaytiruvchi turli modal tuslar ifodalanadi. Qiyoslang: shaxslarni tavsiflovchi gap strukturali frazeologik birliklar: Ein armes Luder ‘Bechora, sho‘rlik’; Die guten Leutchen! ‘Bechoralar!’. Yoki bunday gap strukturali frazeologik birliklar shaxsni kamsitib, xo‘rlab baholaydi: So ein Luder! ‘Yaramas!’; Ein freches Luder ‘Surbet’ va hoqazo, haqoratlab so‘kishlargacha: Ein Luder von eines Frauenzimmer ‘Yaramas ayol’. Ushbu tavsiflar uchinchi shaxsga mo‘ljallangan. Biroq bunday semantikaga ega gap strukturali frazeologik birliklar bevosita suhbatdoshga nisbatan ishlatilishi mumkin: Du armes Kind! ‘Bechoragina!’. Suhbatdoshni yoki umuman ma’lum bir shaxsni tavsiflovchi gap strukturali frazeologik birliklar alohida ajralib turadi: Das ist eine Marke! ‘G‘alati odam!’; Der Junge ist nicht von Pappel! ‘Bu yigit ahmoq emas!’. Ular suhbatdoshning (gapirayotgan shaxsning) o‘ziga nisbatan ham ishlatilishi mumkin: Ich Armer! ‘Men notavon!’. Bunday gap strukturali frazeologik birliklardagi tavsiflar nemis tilida qo‘shimcha semantik-modal, ko‘pincha hazil-mutoyiba tusni o‘z ichiga oladi: Du armes Würstchen! ‘Bechoraginam!’; Hier hängt er! ‘Mana man!’. Umuman olganda, shaxsni tavsiflovchi gap strukturali frazeologik birliklar uchun hazil-mutoyiba modal tusining mavjudligi o‘ziga xos hisoblanadi. Qiyoslang: Er ist kaum drei Käse hoch ‘Hali juda kichkina, mitti’.

8. So‘zlovchi tomonidan minnatdorchilik yoki so‘zlashuv vaziyatdagi sherigining ish-harakatlariga berilgan bahoni yuqori darajada ifodalangan gap strukturali frazeologik birliklar: Das war sehr anständig von Ihnen ‘Juda marhamatli ekansiz’, ‘Marhamatingizning cheki yo‘q’.

9. Adresatga so‘zlovchi uchun biror narsani qilish, bajarishga da’vatni ifodalovchi gap strukturali frazeologik birliklar. Odatda bunday gap strukturali frazeologik birliklar replika so‘ngida qo‘llaniladi, misol uchun: Tu mir die Liebe an! ‘Iltimos, men uchun buni qilib qo‘y!’.

10. Ma’nosida minnatdorchilik yoki madh [Yaxshiev A. A., 2021, 74] qilish umumlashgan tarzda berilgan gap strukturali frazeologik birliklar: Gott sei Dank! ‘Xudoga shukur!’; Dem Himmel sei Dank! ‘Xayriyat!’; Gott sei Lob und Dank! ‘Xudoga shukur!’. Bunda ushbu gap strukturali frazeologik birliklar hazil-mutoyiba tusini o‘z ichiga olishi mumkin: Dem Hergott sei (es) getrommelt und gepfiffen!

Adresat uchun yoqimli, ma’qul narsani ta’kidlovchi iboralar o‘z semantikasi bo‘yicha yaxshi niyat gap strukturali frazeologik birliklarga yaqinlashadi. Bunday gap

strukturali frazeologik birliklar so‘zlovchi tomonidan xotirjam tarzda, hech qanday hissiy hayajonlarsiz talaffuz etiladi, qiyoslang: Du bist d(a)ran! ‘Omading keldi!’.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сафаров Ш. О дискурсивно-прагматической директивных речевых актов // Текст: структура и анализ. –М., 1989. –С. 142-146.
2. Чернышева И. И. Текстобразующие потенции фразеологических единиц // Лингвистика текста, ч. II. –М., 1974. –С. 155 -160.
3. Чернышева И. И. Feste Wortkomplexe des Deutschen in Sprache und Rede. –М.: Высшая школа, 1980. –144 с.
4. Яхшиев А. А. Немис тили оғзаки нутки тизимида фразеологик бирликларнинг семантик-дискурсив мақоми: филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. –Самарқанд, 2021. –74 б.
5. Эшимова, Ш. К. (2022). Personifikatsiya orqali obrazning yaratilishi. международный журнал искусство слова, 5(4).
6. Eshimova, S. K. (2022). Koreys badiiy adabiyotida personifikatsiyaning ifodalanishi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 356-364.
7. Базарова, Ш. Ш. (2022). Koreys adibasi shin kyon suk ijodining o‘ziga xosligi xususida. *Международный журнал искусство СЛОВА*, 5(3).
8. Shuxratovna, B. S. (2022). Koreys adibasi pak van so ijodining o ‘ziga xosligi xususida. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 56-59.